

## O‘ZBEK MUSIQALI TEATRINING O‘ZIGA HOSLIGI

Muzaffar Pirmatov – dotsent

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti  
“San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası*

**Tayanch so‘zlar:** spektakl, an‘ana, ijod, ijro, rejessura.

**Ключевые слова:** спектакль, традиция, творчество, исполнение, режиссура.

**Key words:** performance, tradition, creativity, acting, directing.

Ming yilliklar davomida o‘zbek an‘anaviy teatri rivojlanib keldi. Musiqali teatr san‘atining ildizi antik davrlarga borib taqaluvchi an‘anaviy teatrimizdan oziq olib, o‘ziga xos uslubda shakllandi. Eron, Grek, Arab istilochilari davrida ham, Mo‘g‘illar keltirgan parokandalik davrida ham, iqtisodimiz, san‘atimiz, adabiyotimiz, man‘aviyatimiz ko‘klarga tenglashgan Sohibquron Amir Temur va Temuriylar davrida ham, yakka hokimlikga asoslangan millat g‘ururi, shonu – shavkati, o‘zligi toptalgan SHO‘rolar davrida ham, an‘anaviy o‘zbek teatri murakkab to‘siqlarni yengib o‘tib, o‘zligini saqlab qoldi va ravnaq topdi.

XIX asr oxirlarida XX asr boshlarda Turkistonga kelgan Ozarbayjon, Tatar, Rus va boshqa millatlar teatr truppalari Ovro‘pacha teatr ko‘rinishini olib kelishdi. Yangi san‘at turi mahalliy ziyolilarni qiziqtirib qo‘ydi. “Jadidchilar” harakati a‘zolari bu yangi san‘at turi orqali xalq ongini yuksaltirish, marifat va ziyo tarqatish, xalqning ma‘naviyati, madaniyatini rivojlantirish yo‘lida foydalanishga xarakat qilishdi. Bu izlanishlar natijasida o‘zbek san‘ati o‘zining yangi davrini boshladi. Yangi uslublar, yangidan – yangi ijodiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Dunyo teatr olamida yangi janr – O‘zbek musiqali drama janri yaratildi. Jahon tan olgan aktyorlar, rejissyorlar, dramaturglar, kompozitorlar, rassomlar, san‘atshunoslar teatr darg‘alari yetishib chiqishdi.

O‘zbek milliy musiqali teatri o‘zining ilk qadamlarini juda muvaffaqiyatli boshladi. G‘ulom Zafariyning “Halima” asari tomoshabinlar orasida katta shov – shuvga sabab bo‘ldi. Bu aktual mavzudagi spektakl real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan zamonaviy voqealar asosida yaratiladigan pyesalar yo‘nalishiga asos bo‘ldi. Keyinchalik bu yo‘nalishda “Gulsara” (K. Yashin), “Nurxon” (K. Yashin), “Oftobxon” (K. Yashin), “Oltin ko‘l” (O. Uyg‘un), “Surmaxon” (B. Raxmonov), “Vatan ishq” (Z. Fatxulin), “Farg‘ona tong otguncha” (R. Hamroyev, M. Ismoiliy romani asosida) kabi ko‘plab asarlar yozildi va katta muvaffaqiyat bilan teatrlar sahnalarida sahnalashtirildi.

“Halima”dan so‘ng yana bir yangi va keyinchalik etalonga aylanadigan yo‘nalish, “Farhod va Shirin” (G‘. Zafariy), “Layli va Majnun” (SH. Xurshid), “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” (S. Abdulla), “Aziz va Sanam” (A. Bobojonov), “Ravshan va Zulxumor” (K. Yashin), “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (A. Bobojonov), “Gul va Navro‘z” (S. Abdulla) kabi afsonalar, dostonlar, miflar asosida yaratilgan shoh asarlar vujudga keldi. Bu asarlar o‘zbek musiqali teatrlari o‘zigagina xos an‘analari paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Yana bir yo‘nalishda biz mashhur tarixiy asarlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Ulardan “Muqanna” (H. Olimjon), “Muqimiy” (S. Abdulla), “Nodira” (H. Razzoqov), “Navoiy Astrabodda” (I. Maqsumov), “Zavqiy” (K. Mahkamov), “Mashrab” (A. Tursunov) kabi asarlar tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan.

Musiqali teatr an‘analarini asoschilari G‘. Zafariy, SH. Xurshid, K. Yashin, S. Abdulla, T. Jalilov, SH. Shoumarov, Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Muzaffar Muhamedov, Zuhur Qobulov, Mahmudjon G‘ofurov, Razzoq Hamroyev, Lutfixonim Sarimsoqova, Abbas Bakirov, Soyib Xo‘jayev, Tursunoy Ja‘farova kabi san‘at fidoyilari qo‘ygan poydevorni keyingi avlodlar boyitib, rivojlantirishda davom etdilar.

Murakkab taraqqiyot bosqichini boshdan kechirgan o‘zbek musiqali teatri ko‘plab qiyinchiliklarni shu kungacha yengib kelmoqda. Ammo, har xil sabablarga qo‘ra o‘n yilliklar ichida chin ma‘nodagi milliy klassik musiqali dramalar juda kamayib ketib, ular o‘rnini badiiy sayoz, asosan maishiy mavzudagi spektakllar egallay boshladi. Bu asarlarni ham o‘ziga yarasha falsafasi bor, lekin ular aynan qariyb yuz yilga yaqin o‘ziga xos an‘analar hosil qilgan musiqali drama yo‘lida ishlanmayapti. YA‘ni yuqorida aytilganday dramaturg va kompozitorlar birga, bir yerda o‘tirib, hamjihatlikda asar yaratishmayapti. Dramaturg o‘zicha, asar tayyor bo‘lgach kompozitor o‘zicha ishlaydi. Ular o‘rtasida yangilikga intilish, o‘ziga xos yo‘l ochish xohishi yo‘q yoki sustdir. Rejissyorlar ham bu kabi ishlangan asarlarni sahnalashtirishda spektakl

ariya va duetlarini alohida konsert nomeri sifatida ishlayapti. Axir ustoz va domlalarimiz asar yaratishda bir tanu – bir jon bo‘lib ishlashardi. Shunga o‘xshash fikrlardan o‘zimizga to‘g‘ri xulosalar yasab kelgusida ishlanadigan spektakllarni aynan milliy klassik yo‘nalishida, barcha musiqali drama qonunlariga rioya qilgan holda ishlanishiga e‘tibor berishsa spektakllarimizga faqat foyda keltirilgan bo‘lar edi. Misol uchun ustoz rejissyorlarimiz aynan shu yo‘nalishda ijod qilib, o‘ziga xos janr, o‘zbek musiqali dramasi rivojlantirishgan. Uni taraqqiyot yo‘lini belgilab berishgan. Teatr san‘atimizni mashhur arboblari o‘zbek klassik spektakllarini betakror namunalarini yaratishgan. Mana shu namunalar hozirgi zamonaviy musiqali teatr an‘analariga aylandi. Kurrai – zaminning har bir yerida alohida ajralib turadigan klassik musiqali spektakllarni bizni kunlarga rivojlantirib, o‘z taraqqiyot bosqichini o‘tab kelayotgani, ko‘plab atoqli rejissyorlar xizmatiga bog‘liq. Lekin bu qiyinchiliklarga qaramay san‘at rivoji uchun ijod qilayotgan, an‘analarni qayta tiklab ularni taraqqiyotini ta‘minlayotgan fidoyi san‘atkorlarimiz borligi juda quvonarli holdir.

Rejissyor Rustam Boboxonov ijodi davomida an‘analarni tiklashga, yangiliklar yaratishga intildi. Rustam Boboxonov musiqali spektaklda aktyor ijrosi musiqaga qo‘shimcha emas, bu aktyorni yashash shakli ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham u sahnalashtirgan spektakllarda ariyalar va tekstni ustida juda ko‘p ishlab, ariyalar kiritilgan nomerga aylanib qolmasligini ta‘minlardi. Rustam Boboxonov musiqali teatr aktyorini zamonaviy ijro uslubini topishga intilar edi. U sahalashtirgan spektakllar musiqali teatrning klassik asarlari ruhida sahnalashtirdi. Bular ichida “Nurxon” keyinchalik esa “Yusuf va Zulayho” spektakli o‘zining boy ommaviy sahnalari, kostyumlari, dekoratsiyalari va shular bilan bir qatorda zamonaviy yechimi bilan ajralib turadi. Asardagi jozibali ariyalar, xorlar va raqslar bu romantik sevgi hikoyasini yanada yuksaklarga olib chiqadi. Rustam Boboxonov o‘z ijodi yo‘lida musiqali teatrning an‘analarini qayta tiklashga va ularga o‘ziga hos yangiliklar kiritishga intildi.

O‘zbekiston xalq artisti Rustam Madiyev ham R. Boboxonov singari yangiliklar yaratishga, aktyor bilan ishlashda hech qanday detalni to‘xtalishsiz, analizsiz o‘tkazib yubormaslikga harakat qilardi. Rustam Madiyev o‘z ijodi faoliyatida ko‘plab yaxshi spektakllar sahnalashtirdi va mumtoz teatrimiz qonun – qoidalari asosida ishlab, spektakllarga zamonaviy ruh berdi. O‘. Umarbekovning “Fotima va Zuhra”

romani asosida yaratilgan “Fotima va Zuhra” nomli spektakl ham o‘zining puxta rejissurasi, yaxshi dramaturgiyasi va o‘ziga xos sahnaviy talqini bilan tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo‘ldi. “Bu spektaklni ko‘rgani kelgan tomoshabinlar zaldan yig‘lab chiqib ketishar edi” – deydi Zulayho Boyxonova. Keyinchalik “Bobur sog‘inchi” tarixiy mavzudagi spektakli ham musiqiy teatr an‘analarga xos tarzda sahnalashtirildi. Rustam Madiyev ham spektakllari orqali o‘zbek musiqali teatrini an‘analarini saqlab qolish, ularni rivojlantirish va yangiliklar kiritishga intilgan ijodkor sifatida milliy teatr tarixiga kirdi.

Rejissyor Bahodir Nazarov ham o‘zining salmoqli ijodi natijasida ko‘plab spektakllarni musiqali teatr an‘analari asosida sahnalashtirishga harakat qildi. Tarixiy, afsonaviy, zamonaviy mavzudagi spektakllarni ishlash jarayonida Bahodir Nazarov aktyorlar ijrosini haqqoniyligini, ariya va xorlarni mukammal ijro etilishiga intiladi. U “Namrud”, “O‘lding aziz bo‘lding”, “Bu telba xonadon”, “Oyonam - qaynonam” kabi asarlarni musiqali drama qonun – qoidalari asosida ishlab, milliy musiqiy drama an‘analarni davom ettirayapti.

Zulayho Boyxonova, Ma’suda Otajonova, Mehri Bekjonova, Boyir Xolmirzayev kabilar teatrning buyuk aktyorlari maktabini rivojlantirishga, ularga loyiq shogirdlar bo‘lishga intilib kelishayapti. Bu aktyorlar ortidan yetishib kelayotgan umidli yoshlar esa shular yordamida o‘zbek musiqali teatri an‘analarini yo‘qotmaydi va o‘z yo‘nalishida rivojlanshga hissalarini qo‘shishadi degan umiddamiz.

O‘zbek musiqali teatrining hozirgi holatini yanada yaxshilash, yangiliklar kiritish uchun, XX asr boshlaridagi teatrimiz yo‘lboshchiliri Ovro‘padan kirib kelgan yangi teatr san‘ati yo‘nalishlarini o‘zlashtirib, ularga milliy sayqallar berib, dunyoda yagona o‘zbek musiqali dramasi shakllantirganlaridek, hozirgi kunda Yevropada juda mashhur myuzikl yo‘nalishini eksperiment holida milliylashtirib, boy an‘analarimiz va zamonaviy yevropacha usullarni sintezi orqali uzoq kutilgan yangilikga erishish mumkin.

Yuqorida nomlari keltirilgan rejissyorlarni musiqali teatr rivoji yo‘lida olib borgan barcha izlanishlarini qo‘llagan holda, yangi maxsus effektlarni kashf etish orqali, yangicha ekshen stilidagi spektakllarni sahnalashtirish ustida izlanishlar olib borilsa bo‘lard, albatta, musiqali dramaning klassik asarlarini unutmagan holda. Ko‘plab Ovro‘pa teatrlarida eski, klassik spektakllarni o‘z davrida qanday sahnalashtirilgan bo‘lsa shunday holda saqlab qolib, hozirgi kun

muzeý spektakllari sifatida tomoshabini hukmiga havola qilish rusum bo'lgan. Bizning teatrlarda ham el sevgan "Halima", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi klassik asarlarni 20 – 40 yillar usulida saqlab qolib, yangi myuzikl

shaklidagi yoshlar bob asarlar, shunga yarasha shiddatli, maxsus effektli rejissurasi bor spektakllarni yaratgan holda tomoshabinni teatrga qaytarish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov A. "Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida" – G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.
2. Rahmonov M. "Hamza va o'zbek teatri". Toshkent, 1959 yil.
3. Stanislavskiyni K.S."Sanatdagi hayotim" Toshket 1965 yil.
4. Tursunboyev S, "Teatr tarixi". Toshkent, "Bilm" nashriyoti, 2005 yil.
5. Tursunov T, "Sahna va Zamon".Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2007 yil.

**REZYUME.** Ushbu ilmiy maqolada musiqali teatr an'analarning muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to'xtalib o'tiladi. Ushbu mavzuni ahamiyatliligi, bizning davlatchilik tariximiz, boy o'tmishimiz va madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimiz ma'naviyati bugungi teatr san'ati orqali to'lakonli ifodalanishi davrning talabi ekanligidadir.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье отмечается важное значение традиций музыкального театра. Кроме того, рассматриваются достигнутые успехи в этой области и проблемы, требующие решения в будущем. Актуальность данной темы заключается в том, что история нашей государственности, богатое прошлое и культура, духовность наших великих предков находят полное отражение в современном театральном искусстве, что является требованием времени.

**SUMMARY.** This scientific article highlights the important role of musical theatre traditions. It also discusses the achievements gained in this field and the issues that need to be addressed in the future. The relevance of this topic lies in the fact that the history of our statehood, our rich past and culture, as well as the spirituality of our great ancestors, are fully reflected in contemporary theatrical art, which is a demand of the present time.